

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURITDINOVA SHAHNOZ SADRIDINOVNA**

**HOZIRGI O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATINING**  
**BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI**  
**(H.Imonberdiyev, A.Ko‘chimov she’riyati misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna**

Hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatining badiiy-estetik xususiyatlari (H.Imonberdiyev,  
A.Ko‘chimov she’riyati misolida).....3

**Нуритдинова Шахноз Садридиновна**

Художественно-эстетические особенности современной узбекской детской  
поэзии (на материале поэзии Х.Имонбердиева и А.Кучимова)..... 27

**Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna**

Artistic and aesthetic features of modern uzbek children's poetry (On the example  
of the poetry of H. Imanberdiev, A. Kuchimov) ..... 53

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of published works .....57

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURITDINOVA SHAHNOZ SADRIDINOVNA**

**HOZIRGI O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATINING**  
**BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI**  
**(H.Imonberdiyev, A.Ko‘chimov she’riyati misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2456 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jamilova Bashorat Sattorovna**  
filologiya fanlari doktori(DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**  
filologiya fanlari doktori(DSc), professor

**Barakayev Rahmatullo**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" yanvar soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-29-14. Email: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "3" yanvar da tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_ 8 dagi raqamli reyestr bayonnomasi).



**Y.S.Saidov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.R.Axmedov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
koti, filologiya fanlari nomzodi, professor

**D.Z.Rajabov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida bolalar uchun yaratilgan asarlarning ifodasi, g'oyaviy mazmunida badiiy san'atlarning o'rni, obrazlar olami, ramz va motivlar ahamiyatini ilmiy yoritish masalasiga alohida diqqat qaratilmoqda. Shu asosda bolalar she'riyatining taraqqiyot xususiyatlari, ijtimoiy hayotdagi ekologik muammolar tasviri, bolalar shoirlarining poetik talqin mahorati, she'riy asarlarda tamsiliy ifoda va ramziy obrazlarning ma'naviy-ma'rifiy, estetik ahamiyatini badiiyat qonuniyatlari asosida tekshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhimlik kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining g'oyaviy-estetik xususiyatlari, unda bolalar va kattalar olamining badiiy ifodasi, she'riyatdagi poetik yangilanishlar, obrazlar olami va mazmun-mohiyatdagi evrilishlar, shoirlarning obraz yaratish mahorati va rang-barang motivlar talqini kabi masalalarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, o'zbek bolalar she'riyatida tamsil san'ati, uning tadriji, ramziy obrazlar va detallar, rang-barang motivlarning qo'llanilishini tekshirish, lingvopoyetik xususiyatlarini ochib berish singarilarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyoti, jumladan, she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi, tamsil san'ati va obrazlar olami, ramz va motivlarning g'oyaviy dolzarbligi, badiiy-estetik vazifalarini teran tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Bunday she'rlarda aks etgan ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-badiiy ifodalar yosh avlodning jamiyatga, ijtimoiy hayotga munosabatini faollashtirish, ma'nan barkamol, qadriyatlar ruhida tarbiyalab borishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, mamlakatimizda “yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazish” ustuvor vazifaga aylanmoqda<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan mustaqillik davri o'zbek bolalar she'riyatidagi badiiy yangilanishlarini, shoirlarning ijodiy-individual izlanishlarini tadqiq etish, badiiy tafakkurga xos xususiyatlarini aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2020-yil 2- martdagi PF-5953-son “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi farmonlari, 2023-yil, 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor, sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O'zbekiston Yoshlari Forumida so'zlagan nutqidani. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 52 b.

dasturi to'g'risida", 2023-yil, 20-apreldagi PQ-128-sonli "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil, 2-fevraldagi PQ-54-son "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida ijodkor uslubi va mahorati masalasi M.M.Baxtin, L.Timofeyev, M.B.Xrapchenko, N.D.Tamarchenko, Y.I.Xalizev, A.B.Yesin kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan<sup>2</sup>. Jumladan, bolalar adabiyoti xususiyatlari yo'nalishida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, rus bolalar adabiyotshunosligida A.V.Mironov, I.N.Arzamasheva, V.V.Ximich, Y.K.Sozina, M.A.Chernyak, Y.O.Putilova, M.S.Kostyuxin, N.N.Svetlovskaya, O.A.Utkina T.S.Piche-Ool kabi adabiyotshunoslar zamonaviy bolalar she'riyatining poyetik, janriy hamda badiiy-kompozitsion xususiyatlari haqida mulohaza yuritgan<sup>3</sup>.

O'zbek bolalar adabiyotiga doir ilmiy tadqiqotlar, alohida ijodkorlar mahoratiga doir nomzodlik dissertatsiyalari, xususan, H.Yoqubov, A.Suyumov, G'.Jahongirov, P.Shermammedov, O.Safarov, S.Irisxo'jayeva, R.Barakayev, Q.Qahramonov, Z.Ibrohimova singari adabiyotshunoslar tomonidan o'tgan asr o'rtalaridan tadqiq etib kelingan. Sohaning ayrim jihatlarini o'rganish jarayoni,

---

<sup>2</sup> Тамарченко Н.Д. Теория литературы. Роды и жанры. – Москва: ИМТИ РАН, 2003. – 228 с.; Хализев В. Е. Теория литературы. – Москва: Выс. школа, 2002. – 397 с.; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта–Наука, 2002. – 248 с.

<sup>3</sup> Арзамасцева И.Н., Николаева С.А. Детская литература: Учебник для студентов высш. и средн. пед. учебн. заведений – М.: Издательский центр "Академия"; Высшая школа, 2000; Долженко Л. В., Савина Л. Н. Развитие концепции детства в русской литературе и критике XIX в. Учеб. пособие к спецкурсу по детской литературе. – Волгоград: Перемена, 2001; Кузьмина М.Ю. Страхное в сказках К.Чуковского / Проблемы детской литературы. – П.:1995. – С.57-69; Эриксон Э. Детство и общество / Пер. с англ. – СПб.: 2000; Гоганова А.В. "Пожилые" дети в романе А.Платонова "Чевенгур" // Вестник Московского университета. Серия 9: Филология, 2016. – №1. – С.197. Сергиенко А.И. "Страшные" жанры современной детской литературы. // Детская литература сегодня. – Екатеринбург, 2010. – С.44; Миронов А.В. Искусшение злом в современной детской сказке: традиции и новаторство. // Детская литература сегодня. – Екатеринбург, 2010. – С.54; Арзамасцева И.Н. Природа комического в сказках цикла "Запахи миндаля" С.Г.Георгиева // Детская литература сегодня. – Екатеринбург, 2010. – С.74; Химич В.В. Креативные возможности "морской" темы в детской литературе. // Детская литература сегодня. – Екатеринбург, 2010. – С.94; Созина Е.К. Повести о детстве. // Детская литература сегодня. – Екатеринбург, 2010. – С.108; Черняк М.А. Школа как диагноз: опыт современной прозы. – Екатеринбург, 2010. – С.7. Путилова Е.О. Очерки по истории детской литературы. – СПб, 2005. – 278 с. О.А.Уткина. Детская литература XX века. <https://сайберленинка.ру/артислс/н/детская-литература-xxi-века/виюер.> Светловская Н.Н., Пиче-Оол Т.С. Детская книга и детское чтение. – М.,1999. – 248 с.

ayniqsa, istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida jonlandi. Bolalar adabiyotining yetakchi xususiyatlari O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova kabi olimlarning o‘quv qo‘llanma va darsliklaridan<sup>4</sup> tashqari nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari<sup>5</sup>, monografiya, to‘plamlar va risolalarda ochib berilmoqda<sup>6</sup>. Shuningdek, bevosita o‘zbek bolalar she‘riyati va nasri hamda ayrim adiblar ijodiy mahorati, qissa va hikoyalar talqini o‘zbek mumtoz she‘riyatida tamsil san‘ati, bolalar she‘riyatida tabiat va ruhiyat talqini, sharq adabiyotida motiv talqini masalalari S.Mamajonov, B.Nazarov, A.Rasulov, Z.Mamadaliyev, Y.Solijonov, A.Sabirdinov, Umid Ali, Q.Yo‘lchiyev, B.Rajabova, S.Matjonov, Q.Ergashev, M.Qo‘chqorovanning risola va maqolalarida tadqiq etilgan.<sup>7</sup>

Shuningdek, o‘zbek bolalar she‘riyatiga xos ayrim xususiyatlarni K.Turdiyevaning “Hozirgi zamon bolalar she‘riyatida ma‘naviyat masalasi”, D.Rajabovning “80-yillar bolalar she‘riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari”, B.Ashurovning “Tursunboy Adashboyev she‘riyati poyetikasi”, G.Jo‘rayevaning “O‘zbek bolalar she‘riyatida hajviya (XX-XXI asr materiallari asosida)”, B.S.Jamilovanning “O‘zbek bolalar adabiyotida poyetik tafakkurning yangilanish omillari va tamoyillari”, H.Nusratovanning “Safar Barnoyevning badiiy mahorati”, D.To‘rayevaning “Qudrat Hikmatning badiiy mahorati”, N.To‘xtayevaning “Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining yetakchi xususiyatlari” kabi dissertatsiyalarida kuzatish mumkin<sup>8</sup>.

<sup>4</sup> Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. – Buxoro: Durdona, 2019. – 341 b.; Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Noshir, 2019. – 220 b.

<sup>5</sup> Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан.номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 32 б.; Турдиева К. Ҳозирги замон болалар шеърлятида маънавий масаласи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.; Жўраева Г. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвий образ яратиш маҳорати: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 22 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси ва унинг ривожланиш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 23 б.;

<sup>6</sup> Болалар адабиёти ва замонавийлик. – Тошкент: Фан, 1991. – 212 б.; Қахрамонов Қ. Адабий танқид ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 120 б.; шу муаллиф. Болаликка ошуфта кўнгил. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 40 б.; Баракаев Р. Абдулла Авлоний ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б.; шу муаллиф. Жонажоним, шеърят. – Тошкент: Чўлпон, 1997. – 88 б.; Баракаев Р., Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 160 б.; Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 32 б.; Расулов А. Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012. – 40 б.

<sup>7</sup> Назаров Б. Анвар Обиджон шеърлярида поэтик гўзаллик. Болалар оламининг шайдоси. Республика илмий амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2017. – Б.7.; Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 137 б.; Баракаев Р, Мамадалиев З. Анвар Обиджоннинг нурли ижоди. Болалар оламининг шайдоси. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2017. – Б.20.; Солижонов Й. Лирика латофати, насринг назокати. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018. – 108 б.; Сабирдинов А. Маънавий ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 144 б.; Ибрагимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 46 б.; Умид Али. Кўнгилга сайр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 134 б.; Йўлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик шеър поэтикаси. Фил. фан бўйича фалсафа доктор (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 47 б.; Ражабова Б. Ўзбек классик шеърлятида тамсил санъати. фил.фанл номз... дисс.автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б. Матжонов С. Болалар шеърлятида табият ва руҳият талқини. //Ўзбек тили ва адабиёти – №4, 2021. – Б.23. Эргашев Қ. Мотив ва талқин. // Ўзбек тили ва адабиёти. – №1, 2019. – Б.38.; Кўчқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари (Эссе, қисса, ҳикоя: тадқиқ ва талқин). – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 232 б.; Кўчқорова М. “Ўтмишдан эртактлар” тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 144 б.

<sup>8</sup> Турдиева К. Ҳозирги замон болалар шеърлятида маънавий масаласи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.; Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеърлятида поэтик маҳоратнинг айрим масалалари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 29 б.; Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев

Bevosita o‘zbek bolalar she‘riyati, jumladan A.Obidjon ijodida qo‘llangan badiiy san‘atlar, umumadabiyotshunoslikda ramz va motiv masalasi o‘rganilgan tadqiqotlar ham mavjud<sup>9</sup>.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek va jahon adabiyotshunoslarining tadqiqotlari e‘tiborga olindi, ularga munosabat bildirildi. Tadqiqotimizda boshqa ilmiy ishlardan farqli o‘laroq, zamonaviy bolalar she‘riyatining badiiy-estetik xususiyatlari, tamsiliy tasvir belgilari Hamza Imonberdiyev, Abdusaid Ko‘chimov kabi shoirlarning ijodi misolida tadqiq qilindi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek bolalar adabiyotining dolzarb muammolari” (2020-2024-yy.) yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyati, jumladan, H.Imonberdiyev va A.Ko‘chimov ijodida badiiy ifodalar va ramziy obrazlar vositasida yetakchi motivlarni ochib berish mahoratini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

o‘zbek bolalar she‘riyatida badiiy san‘atlar, jumladan, tamsil san‘ati ifodasini oydinlashtirish;

istiqlol davri ijodkorlarining badiiy san‘atlar hamda ramziy obrazlarga murojaat qilish sabablari va omillarini asoslash;

H.Imonberdiyev va A.Ko‘chimovlar she‘riyatida an‘anaviy va yangilangan motivlarning badiiy-ma‘rifiy ahamiyatini tekshirish;

H.Imonberdiyev, A.Ko‘chimov she‘rlaridagi ramziylik va tamsiliy ifodalar talqini, ularning yosh avlod ma‘naviy olamini shakllantirishdagi tadrijini ko‘rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti sifatida** istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyati namunalarini, jumladan, H.Imonberdiyev va A.Ko‘chimov she‘rlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatining badiiy-estetik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada biografik, sotsiologik, germenevtik, qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

---

she‘riyati poetikasi: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2008. – 156 b.; Жўраева Г. Ўзбек болалар ше‘риятида ҳажвий образ яратиш маҳорати: Филол. fan. номз... diss. автореф. – Toshkent, 2011. – 22 б.; Нусратова Х.Ч. Сафар Барноевнинг бадий маҳорати: Филол. fan. бўйича фалсафа д-ри (PhD) diss. автореф. – Самарқанд, 2017. – 45 б.; Тўраева Д. Қудрат Ҳикматнинг бадий маҳорати: Филол. fan. бўйича фалсафа д-ри (PhD) diss. автореф. – Toshkent, 2017. – 53 б. Жамилова Б. Ўзбек болалар адабиётида поэтик тафаккурнинг янгиланиш омиллари ва тамойиллар. Филол. fan. д-ри (DSc) автореферати. – Toshkent, 2022. – 86 б.

<sup>9</sup> Маматалимов З. Анвар Обиджон ижодида маънавий санъатлар. “Ўзбекистонда илм-фаннинг ривожланиш истиқболлари” халқаро илмий-амалий анжумани. 2022 йил, 30 сентябрь. – Б.602.; Баракаев Р. Анвар Обиджоннинг нурли ижоди. – Китобда: Маърифатга ташна миллат керак юртга. – Toshkent, “Мухаррир”, 2024. – Б.235.; Тоирова Н. Бадий адабиётда кўзгу ва сурат рамзларининг ғоявий-эстетик вазифалари. (Омон Мухтор ва Оскар Уайльд асарлари асосида) Фил.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) diss. автореф. – Toshkent, 2018. – 48 б.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yangi o'zbek bolalar she'riyatida voqelikni badiiy idrok etishning o'ziga xosligi, A.Avloniy, H.H.Niyoziy, G'.G'ulom, S.Jo'ra, Sh.Sa'dulla, P.Mo'min kabi shoirlar ijodida tashbeh, tashxis, tazod, tanosib san'atlari, ramziy obrazlar vositasida aks ettirilganligi, ibratli saboq chiqarishga qaratilgan voqealarning asos sifatida tanlanganligi, tamsiliy fikrlashning tasviriylikni ifodalash kabi uslubiy-ijodiy, individual mahorat qirralari aniqlangan;

Hamza Imonberdiyev ijodida an'anaviylik tamsiliy fikrlash tarzida namoyon bo'lganligi, oddiylikda murakkablik, xususiylikda umumiylik ifoda etilganligi, bola, ona, Kenguru, Burgut, Olabo'ji, Turna, Karkidon, qora Qarg'a, Bedana, Kirpitikan, Baliqcha, ona Orol singari ramziy obrazlari orqali erk, ozodlik, dovyuraklik, tinchlik, mehr-oqibat kabi g'oyalar ifoda etilganligi ochib berilgan;

shoir she'rlarida bolalar va o'smirlarning jamiyatga, tabiatga, jonivorlarga munosabati turli o'yinlar, hayvonlar olamida ro'y bergan hangomalar, munozaralar orqali bolalar uchun nosog'lom jamiyatdagi adolatsizliklardan to'g'ri xulosa chiqarish, saboq olish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi asoslangan;

Abdusaid Ko'chimov ijodidagi janriy rang-baranglik she'riy ertak, manzara she'rlar, rasmlil she'rlar, savolli she'rlar, raqamli she'rlarda namoyon bo'lganligi, ularda falsafiy mushohadalarning teranligi, dum, televizor singari an'anaviy obrazlarning poetik evolutsiyasi, mifologik, fantastik, ramziy (simvolik) va majoziy timsollar vositasida voqelikning bolalarcha badiiy idrok etilganligi yoritilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hozirgi o'zbek bolalar she'riyatida badiiy san'atlardan foydalanish an'analari va takomili, noan'anaviy ramziy obrazlar va motivlar yaratishning ijtimoiy, badiiy-kompozitsion xususiyatlariga e'tibor qaratilgan;

H.Imonberdiyevning she'r va dostonlarida ramziy obrazlar mohiyati, yetakchi motivlar hamda shoir ijodi o'zbek bolalar she'riyatidagi poetik tafakkur yangilanishi namunasi ekanligi baholangan;

A. Ko'chimov she'rlaridagi tasvir usullari, tabiat hodisalari, turli jonivorlar va qushlarning ramziy obrazlari orqali muhim ijtimoiy g'oya, yetakchi motivlarning badiiy-kompozitsion, axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari asoslab berilgan.

H.Imonberdiyev va A.Ko'chimov she'rlarida qo'llangan ramziy obrazlar, tamsiliy ifoda hamda motivlarning o'zaro qiyosi orqali davr bolalar she'riyatining ijtimoiylik, g'oyaviy dolzarblik, poetik tafakkur evrilishlaridagi yangilanishlar dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning dolzarbligini, nazariy manbalar va fikrlarga tayanilganligi, tadqiqotda jahon va milliy bolalar adabiyotshunosligi taraqqiyotidan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning biografik, sotsiologik, germevtik, qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy va kontekstual tahlil usullari orqali dalillanganligi bilan belgilanadi; nazariy fikr va

natijalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan xulosalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Mustaqillik davri o'zbek bolalar she'riyatining badiiy-estetik xususiyatlari yoritilgan, Hamza Imonberdiyev, Abdusaid Ko'chimov kabi shoirlar ijodiga xos individual uslubiy izlanishlar yoritilgan ilmiy xulosalardan zamonaviy o'zbek she'rshunosligi yo'nalishidagi ishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan yondashuvlar, o'zbek bolalar she'riyatida badiiy san'atlar va ramziy obrazlarning, yetakchi motivlarning badiiy-estetik vazifalari, bolalar shoirlarining ijodiy mahorat qirralari, noan'anaviy obraz va motivlarning yuzaga kelish tamoyillari haqidagi nazariy xulosalardan "Adabiyotshunoslikka kirish", "O'zbek bolalar adabiyoti" va "Yangi o'zbek adabiyoti", "Hozirgi adabiy jarayon" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, adabiyotshunoslik lug'atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriylanishi.** Dissertatsiyada o'zbek bolalar she'riyatida badiiy san'atlardan foydalanish an'analari, ramziy obrazlar va motivlar talqini bo'yicha olingan natijalar asosida:

O'zbek bolalar she'riyatida badiiy san'atlardan, ramziy obrazlar va motivlardan foydalanishda shoirlarning ijodiy mahorati, ijtimoiy-g'oyaviy qarashlar, bunda ayrim shoirlarning o'ziga xos mahorati hamda uslubiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'z FA Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 23-fevraldagi №17.01/128-son ma'lumotnomasi). Natijada bolalar she'riyatida ijodkor konsepsiyasi, badiiy talqin, ijodkor mahorati yo'nalishidagi asarlarning nazariy asoslari boyitilishga erishilgan;

o'zbek bolalar she'riyatida mumtoz badiiy san'atlardan foydalanish an'analari, jumladan, Anvar Obidjon ijodida qo'llangan *tashbeh, takror, jonlantirish, intoq, tashxis, anafora* kabi talqinlar bilan bog'liq xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2021-2023-yillarda bajarilgan IZ-2021020813. "Alisher Navoiy ijodining xorijda o'rganilishi va targ'iboti asosida ko'p tilli multimedia to'plamini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 07-martdagi № 04/1-579-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyihani badiiy san'atlar, ramz haqidagi yangicha qarashlar bilan boyitishga erishilgan.

o'zbek bolalar she'riyatida rang-barang obraz va motivlarning qo'llanilishi, poyetik detallarning yetakchi motivi va talqini, milliy qadriyatlarimiz an'analari, xalq og'zaki ijodi janrlari, mifologik obrazlarning badiiy talqini hamda ularning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat

teleradiokompaniyasida “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza”, “Adabiy muhit” teleko‘rsatuvlari, shuningdek, “Muloqot va munozara”, “Qadriyatlar qadim beshigi” radioyeshittirishlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 14-noyabrdagi №02.09/319-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuvlar orqali bolalar shoirlarining she’rlari, ijodiy mahorati bilan bog‘liq qiziqarli tahliliy she’rlar yosh teletomoshabinlarning e’tiboriga havola qilingan, teleko‘rsatuvlarning mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan hamda ilmiy-ommaboplik xususiyati kuchaytirilishiga erishilgan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzuining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Hozirgi bolalar she’riyatida badiiylik tamoyillari**” deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Uning ilk fasli “**Bolalar she’riyatida badiiy ifoda an’anasi va takomili**” tarzida belgilangan.

O‘zbek bolalar she’riyati avvalo, umumshe’riyat bag‘ridan o‘rib chiqqanligiga ko‘ra uning taraqqiyotida badiiy san’atlarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Mumtoz adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz tarixida badiiy san’atlar, asosan, ma’naviy san’atlar va lafziy san’atlarga bo‘lib o‘rganib kelingan. Shuningdek, ma’naviy san’atlar, mazmun tushunchasiga, lafziy san’atlar esa shakl birliklariga asoslanishi ma’lumi.

Badiiy san’atlarga doir A.Hojjahmedovning “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya”, T.Boboyev va Z.Boboyevalarning “Badiiy san’atlar”, Y.Ishoqovning “So‘z san’ati so‘zligi” singari asarlarida badiiy san’atlar tavsifi takomilini kuzatish

mumkin<sup>10</sup>. B.Sarimsoqovning “Badiiylik asoslari va mezonlari” kitobida ham badiiy san’atlarning obrazlilikni yuzaga keltirgan bir necha turi haqida fikr yuritilgan<sup>11</sup>. Darhaqiqat, badiiy san’atlarning qamrovi juda keng, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, tadqiqi ham shunga ko‘ra serqirra. Ayrim tadqiqotlarda esa bu sohada amalga oshirilgan ko‘plab ishlarning umumlashma nazariy tavsiflari ham berilgan<sup>12</sup>. Jumladan, yuzga yaqin she’riy san’atlarning o‘n ikki guruh asosida tasniflanishi ixchamlikka xizmat qila oladi. Binobarin, **ma’naviy san’atlardan: mubolag’a, tashbih, tamsil, tashxis, intoq, talmih, istiora, muqobala, kinoya, irsoli masal, savolu-javob, iqtibos; lafziy san’atlardan: tajnis, tanosub, tazod, takrir, kitobat** kabilar hozirgi davr bolalar she’riyati, qolaversa, H.Imonberdiyev va A.Ko‘chimov ijodida kuzatilgani bilan diqqatga sazovor.

Masalan, Anvar Obidjon ijodida qo‘llangan badiiy san’atlar haqida fikr yuritgan Z.Mamatalimov shunday yozadi: “Bolajonlar she’rda qo‘llanayotgan badiiy san’atlarni yaxshi anglamasliklari mumkin. Ammo she’rni ularga suyumli qiladigan, misralar qatidagi ma’noni uqishni osonlashtiradigan, she’r atalmish mo‘jizaning sirlaridan bahramand etadigan vositalardan biri lafziy san’atlardir”<sup>13</sup>. Tadqiqotchi shu munosabat bilan shoir ijodida qo‘llangan *tashbeh, takror, jonlantirish, intoq, tashxis, anafora* kabilar haqida to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, ramziylik ham bolalar she’rlarida yetakchiligi qator misollarda dalillanadi. Ya’ni A.Obidjonning “Tut” she’rida qo‘llangan takror, ramziyliklar tahlil qilinadi.

Muallifning mazkur yo‘nalishdagi “Anvar Obidjon ijodida ma’naviy san’atlar” maqolasi ham shoir she’rlaridagi tajohul ul-orif, istiora, tashbehtar ortida dalillash (motivirovka) tasviri, shuningdek, husni ta’lil – chiroyli dalillash san’atlari o‘rganilgan<sup>14</sup>.

Ko‘rinadiki, bolalar she’riyatining badiiyliigi tasviriylik va ifodaviylik, muallifning badiiy til mahorati, individual uslubi, badiiy-estetik vazifa bajargan poetik ko‘chimlarga, obrazlar va ramzlar, yetakchi motivlarga ham bog‘liq ekan. Shu jihatdan qaraganda, o‘zbek bolalar she’riyati ham turli davr ijodkorlarining badiiy-estetik maqsadlariga ko‘ra rang-baranglik kasb etib keldi.

“Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb ataladi,— deb ta’kidlaydi D.Quronov badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo‘lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda “poetik vositalar”, “sintaktik figuralar”, “stilistik figuralar” kabi nomlar bilan ham

<sup>10</sup> Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq 1998. – B.11.

<sup>11</sup> Sarimsoqov B. Бадийлик асослари ва мезонлари [Матн] : рисола / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Ҳ. Ахмедов. – Тошкент: Bookmany print, 2022. - 252 б.

<sup>12</sup> Mamajonov Z. A. O‘xshatish asosidagi she’riy san’atlarning nazariy tavsifi va tasnifi. Filol.fanl. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. –Toshkent, 2017. – 48 b.

<sup>13</sup> Mamatalimov Z. Anvar Obidjon ijodida ma’naviy san’atlar. “Ўзбекистонда илм-фаннинг ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжумани, 2022 йил, 30 ноябрь. – Б. 602

<sup>14</sup> Ўша манба. – Б. 605.

yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning buni tasvir, buni ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot soʻz vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Yaʼni, koʻp hollarda bitta vositaning oʻzi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qoʻllaniluvchi ayrim vositalar (mas., tovush takrorlari) borki, ular asosan ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi<sup>15</sup>. Binobarin, oʻzbek bolalar sheʼriyatining dastlabki namunalari yodda qoʻllaniluvchi badiiy tasvir vositalari, badiiy sanʼatlardan keng foydalanilgani ayonlashadi.

A. Avloniyning “Maktab” sheʼri shu jihatdan eʼtiborli. Barmoq vaznidagi toʻqqiz bandli mazkur sheʼr jadid maktablarining tavsifiga bagʻishlangani bilan ajralib turadi. “Maktab” soʻzi sheʼr davomida yigirma yetti marta takrorlangan, har band oxirida oʻgʻlonlarning unda gʻayrat bilan oʻqishi uqtiriladi. Garchi, maktab mavzusi oʻtgan asr boshlaridagi barcha ijodkorlar uchun anʼanaviy obraz hisoblansa-da, bu sheʼr maktab yoshidagi kichkintoylar tasavvuri, qiziqishlari, tili va tushunchasiga mos tarzda ifodalangani bilan muhim.

*Maktab va bola* (oʻgʻlon) sheʼr davomida egizak tushuncha sifatida taassurot qoldiradi. Buning sabablaridan biri shoirning metaforalardan unumli foydalangani deyish mumkin. Maktabning doruladab (odob-axloq uyi), Olohning ehsoni, ajib gulzor singari sifatlar bilan taʼriflash; uni duru gavhar manbai, jannat eshigini ochuvchi, jaholatdan yiroqligi (qoʻying-chi, yigirma yetti sifati) kabilar badiiy-estetik ahamiyatga ega, albatta.

H.H. Niyoziyning bolalar uchun yozgan sheʼrlarida tashxis, *tanosub*, tazod kabi badiiy sanʼatlarni faol qoʻllanishi, shuningdek, poetik koʻchimlar orqali fikrni taʼsirchan, qofiya, ritmda ham soddalik kuzatiladi. Masalan, *tanosub* sanʼatida maʼno jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi soʻzlarni qoʻllash, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratilishi nazarda tutilsa, Hamza Hakimzodaning *ato, ano, bolo - ota, ona, bola* soʻzlari oila tushunchasini, *qosh, koʻz, bosh* kabilar tana aʼzolariga xos tushuncha ekanligini koʻrsatadi.

Shunga oʻxshash ishda Elbek, Sulton Joʻra, Gʻafur Gʻulom, Shukur Saʼdulla, Poʻlat Moʻmin kabi professional bolalar shoirlari ijodidagi badiiy sanʼatlar va poetik koʻchimlar tahlili orqali ularning anʼanaviyligi asoslangan. Shu bilan birga, lafziy va maʼnaviy sanʼatlar bugungi davr sheʼriyatida qayta jilolanib, yangi koʻchimlarni yaratishga asos boʻlmoqda. Xususan, anofora soʻz yoki soʻzlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi, soʻz takrorining maʼlum maqsaddagi koʻrinishi ekanligi nazarda tutilsa, zamondosh shoirlar davr uchun oʻta dolzarb, muhim hisoblangan fikr, his-tuygʻuni keskinroq taʼkidlash, kichkintoylarga yorqinroq anglatish maqsadini koʻzlayotganiga guvoh boʻlamiz.

Safar Barnoyevning “Dadamning qoʻllari” sheʼri shu jihatdan eʼtiborni tortadi. Unda “dadamning qoʻllari” jumlasini oʻn marta takrorlanadi. Yosh lirik qahramon soʻzni dadasining qoʻli miltiq ushlaganini taʼkidlaydi. Bu ifodaning

<sup>15</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademiya nashr, 2010. – 400 б.

o'zida urush yillarining barcha iztiroblari yashirin. Endi shu qo'llarning gulni ham ekkani haqidagi ifoda tinch zamonlar iftixorini anglatadi. Keying misralarda lirik qahramon dadasining qo'lini tinchlik timsoliga mengzaydi. Shu tariqa, "dadamning qo'llari" jumlasini misradan-misraga ko'chib, "boshni silash", "tinchlik timsoli", "yaxshilik tilash", "farzandga payvand", "bahorni keltiruvchi" metaforalar orqali umumlashma obraz darajasiga ko'tariladi:

Dadamning qo'llarin siypalab, o'paman,  
Dadamning qo'llari, uyimiz ko'rkidir,  
Dadam bor hamisha gullaydi bu Vatan,  
Dadamning qo'lidan yovuzlar qo'rqadir<sup>16</sup>.

Bunday ifoda Vatanni kichkintoylarga obrazli tushuntirishning yorqin dalili ham. Shuningdek, lirik qahramon kechinmalari, otalarga bo'lgan cheksiz ehtirom, minnatdorlik tuyg'ulari anofora orqali yuksak badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan deyish mumkin. Zotan, dadamning qo'llari-badiiy ko'chimning bir turi sinekdoxaga ham misol bo'ladi. Besh bandli she'rning har bandida takrorlangan jumla rang-barang ma'no, mohiyat anglatgani bilan badiiylikni oshirgan, deya olamiz.

Istiqlol davri o'zbek bolalar shoirining yana bir vakili Abdurahmon Akbarning ham turkum she'rlari ("**Dadam haqida she'riy hikoyalar**") **shu jihatdan e'tirofga sazovor**. Bunda "dadamning qalbi" anoforasi misra boshida, oxirida takrorlanishi takrorlanishi orqali muhim fikr, holat va muddaoni ta'kidlab ko'rsatadi.

*Armon uyasimish dadamning qalbi. Dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj. Yozgan uch-to'rt she'ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu, ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko'rmagan sonsiz fikrlarning mozori emish...*<sup>17</sup>

Ta'kidlab ko'rsatilgan so'z takrorini qaysi o'rinlarda kelayotganini yanada aniqroq kuzatish mumkin. So'zlar takroriga asoslangan san'atlar qatorida *tasbe* alohida e'tirof etiladi. Bunda birinchi misra oxiridagi so'z (yoki so'zlar) keyingi misra boshida takrorlanadi<sup>18</sup>. Mazkur she'rdagi "dadamning qalbi" takror san'atini ham o'zida namoyon etadi. So'z takrori misradan misraga o'tgani sayin ma'noni kuchayishiga xizmat qilgan ekan, tilshunoslikdagi ma'no ko'chish bilan bog'liq gradatsiya usulini ham bevosita eslatadi. Gradatsiya (lot. Gradation – izchil kuchaymoq) – mazmunni izchil kuchaytirib borishga qaratilgan stilistik figura. Zotan shoir yosh lirik qahramon dadasini qalbinin sevinch-u iztiroblarini shu usul orqali yanada ta'sirchan ifodalashga erishgan. Qolaversa, she'rda qo'llangan ramz, motivlar xilma-xilligi ham bunga xizmat qilgan. Ummon - kenglik, ozodlik timsoli. Ilinj ana shu kenglik va ozodlikka bo'lgan umid. Ammo uni baralla kuylab

<sup>16</sup> Safar Barnoyev. Dadamning qo'llari. – Kitobda: O'zbek bolalar antologiyasi. – Toshkent, "O'qituvchi", 2006. – B.167.

<sup>17</sup> Ўзбек болалар адабиёти антологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, НМИУ, 2006. Икки жилдлик 1-жилд. – Б.268

<sup>18</sup> Ҳоҗиаҳмедов А. Шеърӣи санъатларни биласизми? –Тошкент, 2001. – Б. 20.

bo‘lmaydi, otaning ozorlari va armoni shundan. Dilidagini tiliga chiqara olmaslik azobini dallillash uchun shoir chiroyli misol-tamsil topadi. Bu “armon **uyasi**” va “**fikrlar mozori**”dir. Bilamizki, uya deganda dastlab ari uyasi ko‘z oldimizga keladi. Unga qarab tursangiz, sonsiz arilar kirib-chiqaveradi, uyani ko‘rganingiz zahoti buni his qilib hovliqib ketasiz. “Armon uyasi”ga aylangan qalb esa ana shunday behisob armonlar uyumidan iborat, iztirobga g‘arq bo‘lgan sho‘rlik yurak tasviridir. Mozor esa jismning borsa-kelmas makoni. U yerda dafn etilgan marhum bu yorug‘ olamni abadul-abad tark etadi. Mozorning qayg‘u va g‘am maskani ekanligi shundan. Fikrlarning mozori bo‘lishi yangi o‘xshatish, topilmadir. Aslida ham insonning amalga oshmagan orzulari, umidlari, yoxud rejaları, aytilmagan so‘zi, bitilmagan she‘ri – bular hammasi yurakda saqlanaveradi. Hech qachon ro‘yobga chiqmagani esa mozorga ko‘milgan marhum singari inson qalbi tubiga cho‘kadi. Shu holat misolida shoir o‘z erkidan mosuvo avlod dardi, xalq qayg‘usi, mustamlakachilik siyosatini yorqinroq aks ettirishga erishadi.

D.Rajab she‘rlarida qo‘llangan badiiy san‘atlar va ramziylik yetakchi. Uning “Sukut sarhadi” she‘rida tamsil san‘atining yorqin namunasi ko‘rish mumkin:

Jim turdimmi,  
Qildimmi sukut?..  
Shovqinlarga aralashmadim,  
*Amal-taqal kun ko‘rdim gohi,*  
*So‘z sotib, amal talashmadim.*  
Jimman. Kimman, men bir mehnatkash,  
Yeng shimarib bilagimgacha,  
*Jim ishlayman, bu sukutimning*  
*Chegarasi yuragimgacha.*<sup>19</sup>

She‘rning dastlabki qismida lirik qahramon o‘zining sukutiga misol keltirish orqali tamsil; “amal-taqal”(ya‘ni zo‘rg‘a) kun ko‘rsa ham “amal (mansab, obro‘)talashmagan”i so‘z takrori – mukarrar san‘ati, she‘rdagi “m” harfining bir necha bor takrori tavzi san‘atidir.

Birinchi bobning “**Istiqloq davri bolalar she‘riyatida ramziylik hamda yetakchi motivlar**” nomli ikkinchi faslida o‘zbek bolalar she‘riyatida lirik qahramonning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari bilan birga she‘rdagi yetakchi g‘oya va fikrlarni aynan tamsil san‘atiga xos hikoyat va iboralar bilan dalillash, o‘xshatishlar vositasida yorqinroq anglash mohiyati tahlil qilingan. Ya‘ni hikoyat va rivoyatlar badiiy qahramon olamini kengroq tasvirlashga imkon yaratadi. Ramz va motiv folklordan boshlab badiiy adabiyotda ancha qadimiy va an‘anaviy. Ramz – voqelikning timsolidir,- deb yozadi N.Eshonqul. Voqelikning aynan o‘zi go‘zal emas, uning timsoli go‘zaldir. Illo tosh emas, toshga yo‘nilgan xayol go‘zal. Adabiyotning ilohiy kuchi –aynan shu xayolni yorita olishda ko‘rinadi. Ijod yaratishdir. Yaratish esa ilohiyotga daxldorlikdir. Yaratish zavqi barcha zavqdan, yaratish azobi barcha azobdan yuksakroqdir. Turli xil ishoralar vositasida yozuvchi maqsadini bayon etishi o‘quvchining xotirasida ko‘proq saqlanishi sababi ham ramzlar bilan bog‘liq. Negaki, badiiy ifoda ramzlarda yanada yorqin aks etadi

<sup>19</sup> Дилшод Ражаб. Таниш товушлар. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – Б.36.

<sup>20</sup>. Istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida yozilayotgan bolalar she'rlarida ramziy obrazlarning serqirra motivlarni ifoda etayotganini kuzatish mumkin. T.Adashboyev, M.A'zam, A.Obidjon, A.Ko'chimov, H.Imonberdiyev, Dilshod Rajab, Erpo'lat Baxt, X.Komilov singari shoirlar ijodi shu ma'noda alohida e'tirofga loyiq.

Aytaylik, M.A'zamning ko'pgina she'rlari badiiy-falsafiy jihatdan salmoqli ekanligi ramziy ifodalar taqozosidir. Shoir sobiq sho'ro davri mafkurasi, paxta yakka hokimligi davri siyosatining obrazli timsolini shunday bayon etadi:

O'zbek desa siz ham mendek  
Ko'rasizmi paxtani??  
Paxta – baxt deb aytgan edik,  
O'zbeklarda baxt qani?

To'rtlikda juda qizik aksioma, matematik formula tamsil qilingan:

O'zbek = paxta,  
Paxta –baxt  
Baxt– X

Baxt bu noma'lum bo'lgani uchun X deb olindi. Demak, matematikada noma'lum sonni topish formulasiga amal qilinsa, Baxtning o'zi yo'qligi, o'ylab topilgani ayonlashadiki, bu tamsilning matematik ifodasi yanglig' e'tirofga sazovor.

Yoki:

Ozod odam qanday bo'lar,  
Kulishlari qanaqa?  
Qaram odam qanday kular,  
Yurishlari qanaqa?<sup>21</sup>, – to'rtligidagi “qaram” va “ozod odam” so'zining ma'nosini ilg'ash ham tafakkurga undaydi. “Kulish” va “yurish” esa ramziy ma'noda keng qamrovli tushunchaga ega. Kulgining yigirmaga yaqin ko'rinishlari o'zaro darajalanib, zaharxanda, alamzada, masxaromuz, yoki aksincha chin yurakdan shodon kulish kabilar nazarda tutilsa shoir qo'llagan ramziylik yaqqol anglashiladi.

Fikrimizga yana bir dalil sifatida Anvar Obidjonning “Yaylovni sog'ingan qo'y” she'rini keltirish mumkin:

Ishlar qalay? –  
Desam, qo'y  
Javob berdi  
Surib o'y:  
Kamchilik yo'q  
Oziqdan.  
Bezor bo'ldim

<sup>20</sup> Назар Эшонқул. Ижод қудрати, гўзаллик илоҳиётга дахлдорлик // Миллий тикланиш. – 1998. – 19 май.

<sup>21</sup> Аъзам М. Қирқ болага қирқ савол. – Т.: Янги аср, 2017. – Б.6

### Qoziqdan.

Ushbu she'rdagi yashiringan ma'no haqida R.Barakayevning "Jonajonim she'riyat" risolasida: "...istibdod zanjirlari ostida ezilgan, qorni to'q bo'lsa-da, qadri yo'q, boshi egiklar timsoli"<sup>22</sup> sifatida talqin etilgan qo'y ramziy obrazi xususidagi fikr-mulohazalar Z.Ibrohimovaning quyidagi e'tirofida yanada kengaytirildi: "Anvar Obidjon ushbu ixchamgina she'ridagi qoziqqa bog'langan Qo'y timsolida xalqimiz tutqunlikda yashayotganligini, o'zligidan, minglab yilgi tariximizdan, an'analimiz, ma'naviyatimiz o'chog'i bo'lmish ko'hna "yaylov"idan uzib qo'yilganligiga e'tiborni qaratadi. "Qorni uchun emas, qadri uchun yig'layotgan" qo'yning "o'ychanligi"dagi hazinlikni, og'riq va sog'inchni yosh kitobxonlar shuuriga yetkazishga intiladi. Shuning uchun ham qoziqdan bezor bo'lgan qo'yning sokin isyoni o'quvchi qalbini beixtiyor jimirlatib yuboradi"<sup>23</sup>.

Shunga o'xshash, D.Rajabning aksariyat she'rlari ramzlar asosiga qurilgan. Ayniqsa shoirning "Dehqon dalasida" turkum she'rlari "Ketmon", "O'roq", "Xaskash", "Belkurak", "Panshaxa" va jonivorlari uy jihozlari haqidagi to'rtliklarda buni yaqqol ko'rish mumkin. Masalan:

Dehqon qo'lidagi shu o'roq,  
So'roq bo'lib ko'rinar menga:  
Kimning arpasini xom o'rdim,  
nega? ...nega? ...nega?<sup>24</sup>

Bunda o'roq aynan ramziy ma'noda salmoqli g'oyani tashiydi. Aslida u dehqonning, bir umr mehnat qilib kosasi oqarmagan kolxozchining, paxtakorning, bog'bonning timsoli. Ular kimning arpasini xom o'ribdiki, mehnatdan bo'lak ro'shnolik ko'rmagan. Mustabid sho'ro tuzumi davrida bobodehqon na dam olish kuni, na bayram, na ta'til yoki chiroyli shaharlarga borishni bildi, saharlab ko'z ochgandan, shom qorong'usigacha dalada bo'ldi, hech kimga nolimadi. Shoirni qiynagan ana shu savollar o'roq-so'roq ramzida erksizlik motivini anglatmoqda.

Yoki, uning "Sukut sarhadi" she'rida tamsil san'atining yorqin namunasi ko'rish mumkin:

Jim turdimmi,  
Qildimmi sukut?..  
Shovqinlarga aralashmadim,  
*Amal-taqal kun ko'rdim gohi,*  
*So'z sotib, amal talashmadim*<sup>25</sup>.

She'ning dastlabki satrlarida lirik qahramon o'zining sukuti haqidagi fikrni keltiradi. So'ngra uni oydinlashtirish uchun hayotiy tamsil: amal-taqal, ya'ni zo'rg'a kun ko'rsa ham so'z sotib, ya'ni she'r va ijodini ro'kach qilib amal – mansab talashmaganini ta'kidlaydi.

Shoirning "Qadoq qo'l qissasi" she'rida ham dastlabki misraning isboti chiroyli dalillanishi - tamsil san'ati orqali dolzarb motiv ifodalanishga erishilgan:

<sup>22</sup> Баракаев Р. Жонажоним, шеърят. – Тошкент: Чўлпон, 1997. – Б. 39.

<sup>23</sup> Иброҳимова З. Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 32 б.

<sup>24</sup> Dilshod Rajab. Tanish tovushlar. – Toshkent: Zarqalam, 2006. –B.44

<sup>25</sup> Ўша манба. – Б.45.

Qul so‘ziga uyqashroq nomi,  
Qismati ham o‘xshar naqadar.  
Faqat mehnat, mehnat kasb-kori,  
Qora ishda suyagi qotar.

Zamondosh o‘quvchi “qo‘l” va “qul” so‘zining paronim ekanligini bilishi mumkin. Ammo qulning o‘z va ko‘chma ma’nosiga e’tibor qaratilsa, shoir aytmoqchi fikr yanada o‘tkirroq ekanligi ayonlashadi.

Umuman, mustaqillik yillarida yangicha shakl va uslubda yozilgan she’rlar salmog‘i orta borib, yosh avlod estetik didining yuksalishi natijasida ramziy obrazlardan keng foydalanish, tamsiliy she’rlar yaratish an’anasi qayta tiklana boshladi. O‘zbek bolalar she’riyatida ham erk va ozodlik, mardlik, bahodirlik, mustaqillik motivlari rang-barang ramziy obrazlar va tamsiliy talqinlar mushohadakor savollar, rivoyat va hikoyalar mag‘ziga singdirilmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Hozirgi bolalar she’riyatida ramzlarning badiiy-estetik vazifalari**” deb nomlangan. Uning dastlabki fasli “*H.Imonberdiyevning ramziy obraz yaratish mahorati*” tarzida belgilangan. Mustaqillik ijtimoiy hayotimizda ijobiy hodisalarda keng yo‘l ochdi. Xalq o‘z o‘tmishi, qadriyatlarini bilan birga yosh avlod tarbiyasiga ham alohida mas’uliyat, e’tibor bilan qaray boshladi. Bir qator yozuvchi va shoirlar siyosiy dolzarb muammolarini real va badiiy aks ettirib xalq ma’naviyatini oshirish, uning dunyo qarashi va tafakkurining yangilanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Bu hodisa o‘zbek bolalar adabiyotida ham o‘zgacha bir tamoyillar bilan ko‘zga tashlana bordi. Binobarin, bolalar she’riyatining mushohadakor va iste’dodli vakillaridan biri H.Imonberdiyev ijodini o‘rganish, shoir she’rlarining mavzular ko‘lami, qo‘llangan mazmun mohiyati hamda ulardagi badiiy tasvir vositalariga diqqatni qaratish muhimlik kasb etadi. Zotan, H.Imonberdiyev she’rlarining o‘ziga xosligi avvalo obraz yaratish mahorati va ular ifodalayotgan motivlarning serqirraligi bilan ajralib turadi. Shoir an’anaviy obrazlar, masalan, qushlar va parrandalar, bolalar, onalar obrazi orqali ko‘proq tinchlik, mehr-oqibat motivlarini ifoda etsa, ramziy obrazlar yordamida ma’rifiy-falsafiy tushunchalar, erk, ozodlik, mardlik va jasorat, millatparvarlik, vatan sog‘inchi, ekologik tarbiya motivlarini yangicha rakursda talqin qiladi. O‘zbek bolalar she’riyatida deyarli uchramagan Kenguru, Burgut, Olabo‘ji, Turna, Karkidon, qora Qarg‘a, Bedana, Kirpitikan, Baliqcha, ona Orol singari ramziy obrazlari bilan yangi mavzu, motivlar yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Hatto ko‘pgina she’rlar shularning nomi bilan ataladi. Binobarin, bunday she’rlarda *Qushlar va jonivorlarning ramziy obrazi va ular ifodalaydigan motivlar yetakchilik* qiladi.

Jumladan, zikr etilgan qushlar va hayvonlar H.Imonberdiyev talqinida dolzarb ahamiyat kasb eta oldi. Shoir ijodida o‘zbek bolalar she’riyatida shu vaqtga qadar uchramagan ramziy obrazlar, motivlar mavjudligi diqqatga sazovor. Jumladan, quyidagi ramziy obrazlar va ular ifodalagan motivlar ishda alohida turkumlab o‘rganildi:

A) *Burgut ramziy obrazi* –“Sinov” va “Alla”, she’rlari hamda “Temir tirnoq” manzumasida poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib erk va ozodlik, mardlik va jasorat, Vatan sog‘inchi motivlarini ifodalaydi.

B) *Kenguru ramziy obrazi* – “Kenguru nidosi” she’rida Vatan sog‘inchi, musofirlik motivini ifodalaydi.

V) *O‘q ramziy obrazi* orqali o‘q yo‘llagan shum niyatli kishining o‘zi shu o‘qdan ajal topishi, ya’ni “birovga choh qazisang, o‘zing yiqilasan”- degan mantiqni badiiy teran ifodalashga xizmat qilgan.

G) *Baliqcha ramziy obrazi* – insonlardagi ojizlik, chorasizlik motivini ramziy ifodalash bilan birga, tabiatning jamiyatga ya’ni odamlarga murojaati tarzida yangraydi:

Ko‘zda yosh jala-jala  
Baliqcha qilar nola.  
Oyimni qutqaringlar  
Sazan tog‘a, karp xola.  
Olib qochdi onamni  
Manavi ko‘zi ola!<sup>26</sup>

Taassufki ilmoqdagi chuvalchang ham “ayb menda emas” deb arang boshini chayqaydi. Qolgan baliqlar esa “ko‘rgulik bu, chora yo‘q” deb ko‘zlarini lo‘q qilib turishsa, Ilonbaliq “yig‘ishtir nolishingni”, deya do‘q uradi. Baliq bola battar “charx urar”, ko‘zlarini yoshi “jala-jala” ligicha o‘ksinadi:

Bilmaganga olasiz,  
Qanday tog‘a xolasiz?!

Chorasiz qolgan baliqcha, ko‘zini yumib, “hammani qorong‘ida qoldirish” gagina kuchi yetadi. Onasidan ayrilib qolgan baliqchanning o‘z yaqinlaridan ilinj kutib, dushmandan nafratlanayotgan alamzada jonivor timsoli inson olamiga ko‘chirilsa qanchalik qayg‘uli ekanligi his qilinadi.

